

SOVET-AMERIKA MUNOSABATLARINING YORITISHDA YANGICHA QARASHLARNING SHAKLLANISHI (ROSSIYA MUALLIFLARI MAQOLALARI ASOSIDA)

*1-kurs magistranti: Umarov Sardor.
Ilmiy rahbar: dots. M.R.Rahmatullayev.*

XX asrning ikkinchi yarmida Sovet – Amerika munosabatlari butun xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismi, qolaversa uning mazmunini tashkil etardi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Sovet-Amerika munosabatlari xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynagan. Aynan o‘sha davrda dunyo miqyosida bo‘lgan barcha siyosiy voqealar, u fojiali damlar yoki “detant” bosqichi bo‘larmidi, ular albatta Sovet – Amerika munosabatlari bilan bog‘langan edi. Shu boisdan ham Sovet-Amerika munosabatlari tarixchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Munosabatlarga oid bo‘lgan dolzarb masalalar Rossiya mualliflar tomonidan davriy matbuotda ham batafsil yoritilib borilgan. Ular bergan malumot bugungi kunda Sovet-Amerika munosabatlarini o‘rganishda muhim tarixiy manba bo‘lib hizmat qiladi. Bu holatni XXI asr rus davriy matbuot materiallarida ham kuzatish mumkin [1. p.41].

Bu mavzu yuzasidan o‘sha davrda chop etilgan maqolalar singari hozirgi kunda ham davriy matbuotda turli maqolalar chop etib kelinmoqda. Agar o‘sha davrda matbuotda chop etilgan maqolalarda aynan o‘sha davrda ochiq bayon etilgan materiallardan foydalangan bo‘lsalar, Sovet ittifoqi tarqab ketgandan so‘ng tarixchi olimlar o‘z maqolalarida arxiv materiallaridan keng va to‘laqonli foydalanib, munosabatlar tarixiga oid bo‘lgan holatlarni yangicha yoritib berishga harakat qilganlar [2. 206-6]. Shuningdek, munosabatlarga oid mulohaza va fikrlar XX asrda asosan kommunistik qarashlar negizida shakllangan. Sovet ittifoqi parchalanib ketganidan so‘ng tarixchilar orasida yangi g‘oya va qarashlar shakllandi. Tarixchilar munosabatlar tarixini haqqoniy va obyektiv o‘rgana boshladilar. Arxivlardagi “yopiq” fondlarning ochilishi Rossiya tadqiqotchilariga, Sovet-Amerika munosabatlari tarixini yoritishda, jiddiy obyektiv asos bo‘ldi va shu muammoni o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratildi [1. p.41]. Rus olimlari AQShda chop etilgan davriy matbuot materiallaridan ham unumli foydalana boshladilar.

Bu borada ayniqsa XXI asrda yangicha qarash orqali bayon etilgan maqolalar ajralib turadi.

XXI asrda yangi qarashlar asosida dunyo yuzini ko‘rgan maqolalar sirasiga N.N. Bonseovichning “Американские СМИ о Советской России в 1947 году”[3], V.S.Xristoforovning “Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов”[4], S.V. Xomutinkinining “Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг”[5], A.G. Dulyanning “Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972”[6] , V.V. Sokolovning “Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ” [7] kabi maqolalarini kiritish mumkin.

N.N. Bonsevichning “Американские СМИ о Советской России в 1947 году” nomli maqolasida AQSh davriy matbuoti materiallaridan foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Maqolada asosan 1947-yilda Amerika matbuotida chop etilgan maqolalar asosida 1947-yilda Sovet ittifoqi va Amerika Qo‘shma Shtatlarining eski ittifoqchilardan qarama-qarshi tomonlarga aylanganligi ko‘rsatib berilgan [8. 91-6].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlariga haqqoniy va obektiv bahoni S.V. Xomutinkinning “Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг” nomli maqolasida ko‘rishimiz mumkin. Sovet davri tarixchilari munosabatlar yomonlashuvida asosan AQSh tomonini ko‘rsatib o‘tgan bo‘lsalar, ulardan o‘zgacha tarzda, aksincha AQSh munosabatlar yaxshilanishining asosiy tashabbuskori ekanligini ko‘rsatib beradi [8. 94-6].

Архив materiallaridan foydalanib munosabatlarni yoritib berilganligini V.V. Sokolovning “Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ” nomli maqolasida ko‘rishimiz mumkin. Muallif maqolada Rossiya Federatsiyasi prezidentining arxiv materiallaridan foydalangan holda munosabatlarni yoritib bergan. Munosabatlarning ilqlashuvida AQSh tadbirkorlarining hissasi ham katta ekanligini ko‘rsatib bergan [2. 208-6].

Xulosa qilib qaraydigan bo‘lsak, biz yuqorida ko‘rib o‘tgan maqolalarimizning manbaviy asosini arxiv hamda AQShda chop etilgan davriy matbuot materiallari tashkil etadi. Bu esa Sovet-Amerika munosabatlarini rus tarixchilari tomonidan davriy matbuotda yangi qarash asosida yoritishga harakat qilinganligi belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov S., Rakhmatullayev M. Some actual problems of the Soviet-American political relations in 70-80 twentieth century in the page of the periodical press (Materials of the periodical press Russian authors in the twenty-first century). // Young scientist USA. Washington 2014. p. 41.

2. Умаров С. Россия муаллифлари томонидан XX асрнинг 70-80 йиллари Совет-Америка муносабатлари баъзи бир долзарб муаммоларининг ёритилиши (XXI аср даврий матбуоти асосида). // СамДУ магистрантларининг 2011 йилги илмий тадқиқот ишлари якунлари бўйича XII ва талабаларнинг LXX илмий анжуманлари материаллари. Самарқанд 2012., 206-209-бет.

3. Бонцевич Н.Н. Американские СМИ о Советской России в 1947 году. // Известия Саратовского университета 2011., том 11., Серия История. Международные отношения., выпуск 2, часть 2., с.88-96.

4. Христофоров В.С. Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов. // Новая и новейшая история. 2011, №3 с.15-34.

5. Хомутинкин. С.В. Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг. // Россия и Америка в XXI веке. 2007, № 1,

6. Дульян А.Г. Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972. // Новая и новейшая история. 2008, №2 с.82-89.

7. Соколов В.В. Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ”// Новая и новейшая история. 2009, №1 с.160-182.

8. Умаров С. Иккинчи жаҳон урушидан кейин Совет-Америка муносабатлари даврий матбуот саҳифаларида (Россия муаллифлари даврий матбуоти асосида) // СамДУ тарих факультети иқтидорли талабаларининг анъанавий LXXI конференцияси материаллари. Самарқанд 2013., 91-бет.

SamDU tarix fakulteti “Umumiy tarix” kafedrası professor-o‘qituvchilari, magistrant va iqtidorli talabalarining 2013-yildagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand 2014. 60-63 b.